

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 126 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "EI-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Kopak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda	20
Kalonov Muxiddin Bahritdinovich	
“Yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана.....	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari	49
To'irov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar	86
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalarini boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



XUFIYONA IQTISODIYOT MAMLAKATIMIZ RIVOJIGA TO'SIQ BO'LMOQDA

Kalonov Muxiddin Bahritdinovich

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Annotatsiya: Ushbu maqolada xufiyona iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiyotida keltirishi mumkin bo'lgan zararlari atrof-licha tahlil qilingan. Bundan tashqari, xufiyona iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushing oshishi sabablari hamda uni boshqarish bo'yicha nazariy bilimlar berilgan.

Kalit so'zlar: yalpi ichki mahsulot, yashirin iqtisodiyot, xususiy mulk, ishsizlik darajasi, jamg'arma.

Abstract: In this article, the damage that the secret economy can cause in the country's economy is analyzed in detail. In addition, the reasons for the increase in the share of the secret economy in the country's economy and theoretical knowledge on its management are given.

Key words: gross domestic product, hidden economy, private property, unemployment rate, savings.

Аннотация: В данной статье подробно анализируется ущерб, который может нанести тайная экономика экономике страны. Кроме того, приводятся причины увеличения доли тайной экономики в экономике страны и теоретические знания по ее управлению.

Ключевые слова: валовой внутренний продукт, скрытая экономика, частная собственность, уровень безработицы, сбережения.

KIRISH

Mamlakatimizda pul-kredit, valyuta, soliq va tashqi savdo siyosati sohalorida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ammo shu bilan birga, ekspertlarning baholashlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'tkazilayotgan so'rovlar iqtisodiyotdagi yashirin aylanmaning yuqori darajada saqlanib qolayotganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, savdo va umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta'mirlash, turarjoy xizmatlarini ko'rsatish kabi sohalarda bu ko'zga tashlanmoqda. Albatta, bunday holat vijdonli tadbirkorlarning manfaatlariga putur yetkazmoqda. Eng yomoni ular uchun teng bo'lmagan biznes yuritish shartlarini yuzaga keltirmoqda.

Davlatimiz rahbari shu yil 16 yanvar kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot muammosini bugungi kunda eng dolzarb masala ekanini tilga oldi. Unda aytilgan ma'lumotlarga ko'ra, xizmatlarda 140 trln. so'm, qurilishda 50 trln. so'm, sanoatda 40 trln. so'm mahsulot "soyada" qolib ketmoqda.

Agar ular joyida bo'lsa, bu orqali yalpi ichki mahsulotga 135 trln. so'm, davlat budgetiga esa 30 trln. so'm miqdorida tushum qilish mumkin edi. Xususan, 27 mingta qurilish korxonasi 41 foizi yoki 10 947 tasi hisobotida faqat bir nafar ishchisini rasmiy xodim sifatida ko'rsatgan bo'lsa, shundan, 2249 tasi Toshkent shahrida, 1087 tasi Toshkent viloyatida, 837 tasi Samarqand shahrida va boshqa hududlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu korxonalar tomonidan o'tgan yil davomida 4 trln. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xufiyona iqtisodiyot mavjudligiga dastlab XX asrning 30-yillarida e'tibor bera boshladilar. XX asrning 70-yillaridan boshlab xufiyona iqtisodiyotni ilmiy tadqiq qilish boshlandi. Xufiyona iqtisodiyotni tahlil qilish rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ingliz sotsiologi K.Xart tomonidan birinchilar qatorida boshlandi U "uchinchi dunyo" mamlakatlarida ko'plab shaharliklarning rasmiy iqtisodiyotga aloqador emasligini aniqladi. U norasmiy



iqtisodiyot atamasini ilmiy muomalaga kiritdi. Daromad olishning formal va noformal shakllari o'rtasidagi farq ish haqi va o'zini o'zi ish bilan band qilish asosida topilgan daromad o'rtasidagi farq sifatida izohlandi. P.Gutman (AQSH) xufyona iqtisodiyot ko'lamiga va rolga e'tibor qilish lozimligini asosladi.

Fernando de Soto "Boshqa yo'l" asarida xufyona iqtisodiyotni xalqning korrupsiyalashgan davlatning qashshoqlashayotgan aholining asosiy ehtiyojlarini qondirishga layoqatsizligiga nisbatan stixiyali va ijodiy reaksiyasi (javobi) deb atadi. U tarnsaksiya xarajatlarini oshkoralik (legallik) va nooshkoralik (nolegallik) kriteriyalari asosida guruhlashni taklif etgan.

Shveysariyalik iqtisodchi Ditter Kassel bozor xo'jaligida yashirin iqtisodiyot rivojlanishining uchta ijobiy funksiyalarini ajratib ko'rsatgan. Birinchisi bu qonuniy va yashirin iqtisodiyot o'rtasida resurslarni qayta taqsimlash yordamida iqtisodiy kon'yunkturada darajalar o'rtasidagi farqlarni tekislash rasmiy iqtisodiyotda inqiroz bo'lgan davrda ishlab chiqarish resurslari o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketmaydi, balki "soya"ga oqib o'tadi va inqiroz tugagandan so'ng rasmiy ko'rinishga o'tadi. Ikkinchisi nomaqbul ijtimoiy qarama-qarshiliklarni yumshatish, xususan, norasmiy bandlik kam ta'minlanganlarning moddiy holatini yengillashtiradi. Uchinchisi xufyona iqtisodiyot o'zining resurslari bilan rasmiy iqtisodiyotni ta'minlab turishi norasmiy daromadlardan rasmiy sektorda tovar va xizmatlarni sotib olish uchun foydalaniladi, aylantirib, poklab olingan jinoyatchilik kapitali soliqqa tortiladi.

Afsuski, yashirin yoki soyadagi iqtisodiyot faqat O'zbekistonda emas, butun dunyoda mavjud. Iqtisodchi olim E. Feyg yashirin iqtisodiyot ko'lami 1970-yillarning oxirida AQSH rasmiy yalpi ichki mahsulotining uchdan bir kismini tashkil etishini baholadi. Bu baho AQSH Kongressining Iqtisodiy qo'mitasida maxsus muhokama qilindi.

1991-yilda Jenevada Yevropa tahlilchilarining yashirin va norasmiy iqtisodiyotga bag'ishlangan konferensiyasi bo'lib o'tgan. Uning materiallari asosida rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot statistikasi bo'yicha maxsus ko'rsatmalari nashr etilgan. Shundan beri ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot muammolari keng tadqiq etilmoqda. Uning ko'lami YAIMga nisbatan 2016 yilda Italiyada 21,1 foizni, Shvetsiyada 20,4 foizni, Fransiyada 14, Germaniyada 13 foizni tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlarda ancha yuqori, jumladan, Tailandda 71, Misrda, Boliviya 66 va Panamada 62 foizni tashkil etgan. Yaqin paytlargacha Rossiya 28 ta davlatni o'z ichiga olgan reytingda to'rtinchi o'rinni egallab, eng yirik beshta yashirin iqtisodiyotga kirdi. Xalqaro sertifikatlangan buxgalterlar assotsiatsiyasi (ACCA) tomonidan taqdim etilgan global soyaning rivojlanishini baholash va prognoz qilishga bag'ishlangan tadqiqotga ko'ra, uning hajmi 33,6 trillion rublni yoki mamlakat YAIMning 39 foizini tashkil qiladi.

Rossiyadagi yashirin iqtisodiyot dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri bo'lib, dunyo o'rtacha ko'rsatkichidan deyarli 84 foizga yuqori. Faqat Ukraina YAIMning 46 foizi, Nigeriya YAIMning 48 foizi va Ozarbayjon YAIMning 67 foiz ko'rsatkichi bilan yirikroq yashirin iqtisodiyotga ega. Shri-Lanka 38 foiz bilan beshinchi o'rinda. ACCA ekspertlari yashirin iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, soliqqa tortish yoki nazorat qilish tizimidan tashqarida bo'lgan iqtisodiy faoliyat va ulardan olinadigan daromadlar sifatida belgilaydilar.

Yashirin iqtisodiyot sektori hajmining eng kichik ko'rsatkichlari AQSH (YAIMning 7,8 foizi), Yaponiya (10 foiz) va Xitoyda (10,2 foiz) qayd etilgan. ACCA hisob-kitoblariga ko'ra, 2016-yilda yashirin iqtisodiyotning global yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 22,66 foizni tashkil qilgan. Kelgusi yillarda u pasaydi: 2017-yilda 22,5 foizga, 2020-yilda 22,1 foizga tushdi va 2025-yilda 21,4 foizgacha kamayishi kutilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda xufyona iqtisodiyot (shadow economy) asosan davlat hisobi va nazoratidan tashqarida rivojlanadigan hamda pirovardida rasmiy statistikada aks etmaydigan xo'jalik faoliyatiga tushunilishi tahlil qilindi. Xufyona iqtisodiyotning rivojlanish sabablari va omillari davlatning soliq siyosatidagi kamchiliklari, bozorning tovar va xizmatlar bilan to'yinmaganligi, iqtisodiyot tarmoqlari va sohaları o'rtasidagi muvozanat va balansning mavjud emasligi iqtisodiyotning siklik tebranishlari, aholi xarid qobiliyatining pastligi, tranzaksiya xarajatlarining yuqoriligi hamda qonunchilik bazasining takomillashmaganligiga ilmiy yondashildi. O'rganish jarayonida mavzu bo'yicha statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat iqtisodiyotning ijtimoiy tomonini oladigan bo'lsak, bu yo'nalishga jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning hal etilishi darajasi, aholining ijtimoiy-psixologik kayfiyati, davlatning xususiy mulk va sektorga munosabati, aholining tabaqalanishi darajasi, ishsizlik darajasi, kam ta'minlangan aholi qatlamlarining ko'lami, mehnat migrantlarining ko'pligi, mehnat munosabatlari, mehnat sharoitlari, ish haqi tizimi hamda ijtimoiy kafo-latlar, pensiya ta'minoti kabilar kiradi.



Tarmoqlar va sohalari o'rtasidagi muvozanat. Yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga insonning qarama-qarshi tabiati, undagi yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash, soliq siyosatidagi kamchiliklar, bozorning tovar, xizmatlar bilan to'yinmaganligi, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasidagi muvozanatning mavjud emasligi, aholi xarid qobiliyatining pastligi, qonunchilik bazasining takomillashmaganligi, iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash mexanizmining mukammal emasligi, davlatning xususiy mulk va sektorga munosabati, ishsizlik darajasi, byurokratiya, davlat xizmatchilarining kompetentlik va mas'uliyatlilik darajasi, tadbirkorlarga ma'muriy bosim, homiylik qilishga majburlash kabi omillar sabab bo'ladi.

Yashirin yoki soya iqtisodiyoti, juda jo'n qilib tushuntirganda, haqiqiy daromadini kam ko'rsatib davlat g'aznasiga kam soliq to'lash yoki oldi-sotdisini, bajarilgan ish yoki xizmati haqini umuman davlatdan yashirish maqsadi ko'zlangan iqtisodiy faoliyatdir.

Tan olish kerakki, kontrabanda yo'li bilan olib kirilgan sigaretani "peshtaxta" ostida sotayotgan va bundan topgan daromadini hech qaysi hujjatda qayd etmaydigan do'kondor dunyoning eng rivojlangan Amerika yoki Britaniyadek mamlakatlarida ham topiladi. Faqat aksar rivojlangan mamlakatlarda soya iqtisodiyotining ulushi uncha katta raqamni tashkil etmaydi. Hukumatlar bu ulushni kamaytirish choralari ko'rishga intiladilar. Soyadagi yoki qog'ozga tushmagan iqtisodiyot sobiq ittifoqning qusurli "rejalashtirish" iqtisodiyotidir.

Sobiq ittifoqda inson hayoti uchun zarur tovarlar har doim taqchil bo'lgan. Zavod, fabrika yoki boshqa yirik korxonalarining omborlarida esa avtomobil yoqilg'isi yoki ehtiyot qismlari keragidan ortiq saqlangan. Tadbirkorlik jinoyat sanalgan, korrupsiya urchigan bunday jamiyatda haydovchi o'z xizmat avtomobiliga quygan tekin benzinining bir qismini sotib shaxsiy daromad topishi oddiy holga aylangan. Soya iqtisodiyotiga bag'ishlangan tadqiqotlardan birida 1970-yillarda yirik shaharlardagi benzinning 33 foizdan 65 foizgachasi o'g'irlangan benzin bo'lgani aniqlangan.

Qo'shib yozish bilan ham davlat xazinasidan pul olish imkoniyati bo'lgan, minglab sondagi chorva mollari hech joyda qayd etilmagan. Bunda oddiy odamlarning davlat va davlatning moliyaviy tashkilotlariga ishonmasligi muhim o'rin tutgan. Aholida ozroq pul jamg'arish imkoniyati 1970–1980-yillarda paydo bo'lgan, o'shanda ham aksar yurtdoshlarimiz pulini hukumat tinmay targ'ib qiladigan omonat kassasiga emas, ko'rpachasi qatiga ishongan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi aksariyat aholiga oila boqish qiyinlashgan, konvertatsiya yopilgan yillarda yashirin iqtisodiyot aksar o'zbekistonliklarni og'ir kunda qutqargan daromad manbai bo'lganini ba'zi iqtisodiy tahlilchilar e'tirof etadilar. Yashirin iqtisodiyotning aniq salbiy tomonlari (soliq to'lashdan bo'yin tovlash, jinoyatchilik bilan bog'liqlik) va ba'zi ijobiy tomonlari mavjud.

Yangi O'zbekiston sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirishga nisbatdan to'siqlarni kamaytirish, soliq foizlarini tushirish islohotlari soya iqtisodiyotini kichraytirishga xizmat qilyapti. To'g'ri, ayrim muammolar yo'q emas. Yo'qsa, Prezidentimiz o'z ma'ruzasida aytganidek, 5 milliard so'mga maktab qurayotgan 10947 ta qurilish tashkiloti "bitta xodimim bor", deb hisobot taqdim etayotganini mas'ul idoralar bilmasmidi?

Avvalambor, biror bir mamlakatda yashirin iqtisod ulushini aniq-tiniq o'lchash imkonsiz. Boisi bunday faoliyat uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan. Noqonuniy ish qilayotganini kontrabandachi ham, o'sha kontrabanda tovarni sotayotgan shaxs ham, bularga ko'z yumishi evaziga noqonuniy daromad topayotgan davlat amaldori ham yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham buni yashirincha qilishga intiladilar. Mas'ul idoralar faqat taxminiy raqamni bera olishlari mumkin. 2019-yili O'zbekistonda sohalariga qarab yashirin iqtisodiyot ulushi 48 dan 62 foizgachani tashkil etishi mumkin, deb aytilgan.

Ochiqlik siyosati va raqamlashtirish nima uchun zarur? Oxirgi yillardagi O'zbekistondagi ochiqlik siyosati sababli turli statistik ma'lumotlar jamoatchilikka oshkor etilayotgani ham yashirin iqtisodiyot ulushi kattalashib borayotgandek taassurot uyg'otishi mumkin. Masalaning salbiy tomoni shundaki, agar Jahon Banki O'zbekiston YAIMini 80 milliard, deb hisoblayotgan bo'lsa, 32 milliard dollar tushum davlat budjetiga tushmay qolayotganidir. Yana bir zarari – qonunan soliq to'lashga rag'batni o'ldirishi. Daromadini yashirib boyib borayotgan firma yoki kompaniyani ko'rgan boshqa turdosh shirkatning soliq to'lashga rag'batini so'nadi, bu yalpi soliq tushumi pasayishiga yetaklashi mumkin.

Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot mavjud bo'lib qolayotganining sabablari bor edi, albatta. Ularning birinchisi, xo'jalik ishlariga davlat aralashuvining borligi. Yaqin yillargacha O'zbekistonda o'z biznesini rasman ro'yxatdan o'tkazib faoliyat yuritayotgan tadbirkor to'la erkinman, deb ayta olmas edi. Tuman hokimi yoki boshqa mansabdor "falon maqsadga shuncha pul o'tkazasan" deb zug'um qilardi. O'z daromadining ma'lum bir qismini tumandagi qurilish yoki biror tadbirga o'tkazishga og'zaki majbur etilgan biznesmen keyin soliq hisobotida o'sha summani ko'rsatmasdi. Nega do'konlar yoki tamaddixonalar mijozga qog'oz chek berishni xushlamasdi? Chunki erta topshiradigan hisobotida qaysidir davlat amaldorining haqi to'lanmagan ziyofatini to'g'irlab kiritishi uchun "tuyuk" qoldirishi zarur edi. Agar daromadini ko'p qilib yozsa, soliqni ham ko'p to'lashi kerak, unda o'ziga daromad qolmaydi.

Ikkinchi sabab, hamon soliq yukining og'irligi bo'lgan. Shuning uchun O'zbekiston hukumati tadbirkorlarni shaffof soliq to'lashga rag'batlantirish maqsadini ko'zlab, qo'shilgan qiymat solig'ini 12 foizga tushirdi. Demak,



shunday sharoit yaratilishi kerakki, qayerdadir rasman ishlaganidan ko'ra kirakashlik qilganim afzal, degan taksichi uchun ham to'laydigan solig'i malol kelmasin. Uchinchi sabab, korrupsiya. O'zbekistonda pora hisobiga daromadini yashirgan tadbirkorning hisobotiga ba'zi tekshiruvchi idora xodimlari ko'z yumadi.

Ammo O'zbekistonda hujjatlar, ish yuritish tobora raqamlashtirib borilayotgani yashirin iqtisodiyot ulushi kamayishiga ham olib kelyapti. Naqd pul muomalasini kamaytirib, bank kartasi bilan ishlashga o'tish yoki zamonaviy to'lovlar tizimini joriy etish ham bir tomondan, yashirin iqtisodiyotni kamaytiradi, boshqa tomondan, banklarga ishonchning ortishiga olib keladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev soya iqtisodiyotiga bag'ishlangan hukumat majlisida Bosh Prokuraturaning Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi departamenti faoliyati butkul o'zgartirilishini aytdi. Bu departamentning holatini o'rganib tahlil qiladigan markaz tashkil etiladigan bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiyotga qarshi kurashish sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni imzoladiki, uning qonunga itoatkor tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, yashirin iqtisodiyotni repressiv yo'l bilan emas, balki ularni rag'batlantirish mexanizmlari va amaliy ko'mak berish orqali ko'lamini kamaytirishni nazarda tutadi. Shuningdek, jazolash choralari kuchaytirishdan voz kechgan holda insofli tadbirkorni himoya qilish, ularga haqiqiy ko'makchi bo'lish hamda biznes rivojiga to'siq bo'luvchi korrupsiya omillariga barham berishga olib keladi.

Bu maqsaddagi ishlar qanchalar samara berganini bir yildan keyin – O'zbekistondagi soya iqtisodiyotining ulushiga bag'ishlangan yangi hisobot e'lon qilinganida undagi raqamlarni tahlil qilish bilan xulosa chiqarish mumkin bo'ladi. Boz ustiga, joriy yilning 1 martidan boshlab tadbirkorlarning barqarorlik reytingi yo'lga qo'yilishi belgilandi. U elektron shaklda bo'ladi va yuqori reytingga ega tadbirkorlarga qator imtiyoz hamda preferensiyalardan foydalanish imkonini beradi.

Ta'kidlash joizki, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi nafaqat mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi, balki tadbirkorlik subyektlarining "soya"dan chiqishiga ham xizmat qilmoqda. Shu holatni inobatga olgan holda, bojxona nazorati tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etilmoqda. Inson omilini bartaraf etish natijasida kontrabanda va tovarlarning bojxona qiymatini sun'iy ravishda pasaytirish amaliyotiga barham beriladi. Bojxonadan keyingi nazoratni muvofiqlashtirish import qilinadigan tovarlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini soliq organlari tizimi bilan integratsiyalash orqali ta'minlanadi. Bundan tashqari, import bojxona deklaratsiyasini elektron hisobvara-q-fakturaga bog'lash orqali iste'molchilarga tovarlar yetkazib berishning uzluksiz zanjiri yaratilmoqda. Endilikda bojxona auditi tizimi joriy etiladi.

Soliq tizimini yanada isloh qilish va liberallashtirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, yakka tartibdagi tadbirkorlarni hisobga olish va soliqqa tortishning eng qulay va moslashuvchan tizimini yaratish, shuningdek, bu boradagi ilg'or tajribaga asoslangan ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Xorijiy davlatlarda norasmiy (ro'yxatdan o'tmagan) faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlarning "soyasi"dan chiqib ketish uchun kapitalni amnistiya qilish va daromadlarini legallashtirish bo'yicha kompaniyalarni tashkil etish zarur bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish joizki, mamlakatda iqtisodiy o'sish kuzatilmayotgan kompaniyalarni rag'batlantirish kuchsiz korxonalaridan davlat foydasiga qo'shimcha mablag'lar olib qo'yilishiga olib keladi, bu esa pirovardida ishchilarning ish haqiga ta'sir qiladi va natijada iste'mol talabini kamayishiga olib keladi. Yangi me'yoriy hujjatlar loyihasi yana faqat soliq ma'muriyatchiligini kuchaytirish, soliq undirish nomidan faqat kichik biznes va aholiga ta'sir ko'rsatadigan, ya'ni soliq yig'ishnomi bilan minglab kichik biznes subyektlarining yopilishiga olib keladi.

Yurtimizdagi so'nggi islohotlar sababli kutilayotgan o'zgarishlarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: reytingi yuqori tadbirkorlar uchun barcha soliq tekshiruvlari bekor qilinadi, qo'shilgan qiymat solig'i summasi bir kun ichida, boshqa soliq turlari bo'yicha ortiqcha to'lovlar uch kun ichida qaytariladi.

Tovarlarni import qilish va sotishda qo'shilgan qiymat solig'ini bojxona va soliq organlarida o'zaro hisobga olish imkoniyati yaratiladi. Bu choralarning barchasi mamlakatimizda soya iqtisodiyotining kamayishiga, o'z navbatida, mamlakatimizning jadal rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бахтишод Хамидов. Измерение коррупции // Экономическое обозрение №4 (244) 2020. <https://review.uz>
2. Волков В. Силовое предпринимательство. СПб.; М.: Европейский университет в Санкт-Петербурге - Летний сад, 2002.
3. Бойков Э. "Серая" экономика: масштабы развития и влияние на массовое сознание // Социологические исследования. 2001. № 11. С. 29 – 35.
4. Hart K. Informal Urban Income Opportunities and Urban Employment in Ghana // Journal of Modern African Studies. 1973. Vol. 11. №1. P.61-90).
5. Gutmann P. The Subterranean Economy // Financial Analysts Journal. 1977. № 34. P. 20.
6. <http://www. Stat.uz>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

